

## ПУДРАТ ШАРТНОМАСИ

2022 й. «27» 6

2022-377-7-95-ОВ-сон

Иштихон ш.

Кейинги ўринларда "Буюртмачи" деб юритиладиган **Иштихон туман Ободонлаштириш бошқармаси** томонидан ўзининг Низоми асосида иш юритувчи раҳбар А.Х.Ибрагимов бир томондан, кейинги ўринларда "Пудратчи" деб юритиладиган **«OAZIZ ISHTIXON»** хусусий корхонаси номидан Низом асосида иш юритувчи А.Толлиев иккинчи томондан мазкур пудрат шартномасини туздилар.

### I. ТАРИФЛАР

1. Мазкур шартномада куйидаги тарифлар қўлланилади:

**ижро ҳужжатлари** - натурада бажарилган ишлар ёки ишларни бажариш учун масъул бўлган шахслар томонидан уларга киритилган ўзгаришларнинг ушбу ишчи чизмаларга мувофиқлиги тўғрисидаги ёзувлар билан биргаликда обьект қурилишига ишчи чизмалар туркуми, сертификатлар, техник паспортлар ва ўрнатилган асбоб-ускуналарнинг сифатини ва ишларни бажаришда қўлланилган материаллар, конструкциялар ва деталларнинг сифатини тасдиқловчи бошқа ҳужжатлар, беркитиладиган ишлар тасдиқланганлиги тўғрисидаги далолатномалар, айrim масъулиятли конструкциялар оралиқ даврда қабул қилиниши тўғрисидаги далолатномалар, монтаж килинган асбоб-ускуналарнинг якка тартибдаги синови тўғрисидаги далолатномалар, ишларни бажариш дафтарлари ҳамда қурилиш нормалари ва қоидаларида назарда тутилган бошқа ҳужжатлар;

**қурилиш майдони** - мазкур шартнома (контракт) доирасида барча ишларни бажариш даврида далолатнома бўйича Буюртмачи томонидан Пудратчига берилган ер участкаси. Объектнинг қурилиш майдони чегараси ажратиб қўйилади ёки бош режага мувофик белгиланадиган бошқа белгилар билан белгилаб қўйилади;

**вақтинчалик иншоотлар** - Пудратчи томонидан қурилиш майдонида ўрнатиладиган ва ишларни бажариш учун зарур бўлган ҳар кандай типдаги вақтинчалик бинолар ва иншоотлар;

**беркитиладиган ишлар** - сифати ва аниқлигини кейинги ишлар бажарилгандан кейин аниқлаш мумкин бўлмаган кейинчалик бажариладиган ишлар ва конструкциялар билан беркитиладиган ишлар;

**шартнома нархини бўлиб чиқиши** - ишларнинг ҳар бир босқичи ва/ёки турлари қийматини аниқ белгилаган ҳолда шартнома бўйича объектнинг умумий қийматини босқичларга тақсимлаш.

### II. ШАРТНОМА МАВЗУСИ

2. Пудратчи мазкур шартнома шартларига асосан "Обод қишлоқ" дастури асосида **Иштихон туман "Хазарбобо" маҳалла фуқаролар йигини "Жарости" қишлоқ қўчаларига тунги ёритиш чироқлари ўрнатиш ишлари** ва фойдаланишга тайёр ҳолда топшириш ишларини бажариш мажбуриятини олади, Буюртмачи эса Пудратчига қурилиш ишларини бажариш учун зарур шароитлар яратиш, уларни қабул килиш ва тўловни амалга ошириш мажбуриятини олади.

### III. ШАРТНОМА БЎЙИЧА ИШЛАР ҚИЙМАТИ

3. Мазкур шартнома бўйича Пудратчи томонидан бажарилган, танлов савдоси (тендер) натижасида аниқланган ва тендер комиссиясининг қарори (**2022 йил "22" июндаги 105469-сон баённома**) билан тасдиқланган ишлар қиймати барча солиқлар, йигимлар ва ажратмаларни ўз ичига олган ҳоли жорий нархларда **61 971 000.0 (Олтмиш бир миллион тўқиз юз етмиш бир минг)** сўмни ташкил киласди.

4. Ишлар қиймати узил-кесил ҳисобланади ва кейинчалик қайта кўриб чиқилиши мумкин эмас, куйидаги ҳоллар бундан мустасно:

қурилиш қийматини кўпайтиришга енгиб бўлмайдиган куч (форс-мажор) ҳолатлари сабаб бўлганда;

ишилар ҳажми Буюртмачи томонидан ўзгартирилганда;  
объектнинг қурилиши бир йилдан ортиқقا ўзгартирилганда.

5. Қурилиш муддати бир йилдан ортиқ бўлганда иккинчи йилга ва кейинги йилларга шартномавий нархларни аниқлаштириш қонун хужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

6. Тегишли асослар мавжуд бўлганда, санаб ўтилган ўзгаришлар Буюртмачи билан Пудратчи ўртасидаги шартномага қўшимча битим билан расмийлаштирилади.

#### **IV. ПУДРАТЧИННИГ МАЖБУРИЯТЛАРИ**

7. Мазкур шартнома бўйича Пудратчи мазкур шартноманинг II бўлимида назарда тутилган ишиларни бажариш учун:

барча ишиларни мазкур шартномада ҳамда унга 1- иловага мувофиқ ишиларни бажариш жадвалида назарда тутилган ҳажмда ва муддатларда ўзининг кучлари ва/ёки жалб қилинган кучлар билан бажариш ҳамда ишни Буюртмачига мазкур шартнома шартларига мувофиқ топшириш;

1- иловага мувофиқ қурилиш майдонига зарур қурилиш материаллари, буюмлар, конструкциялар, асбоб-ускуналар ва бутловчи буюмлар, қурилиш техникасини етказиб бериш, уларни қабул қилиш, тушириш, омборга жойлаш ва сақлаш;

қурилиш майдони худудида вақтинчалик иншоотлар қуриш;

қурилиш майдонида техника хавфсизлиги, ишиларни бажариш вақтида атроф муҳитни, ўтқазилган дараҳтларни ва ер участкасини муҳофаза қилиш бўйича зарур тадбирлар бажарилишини таъминлаш, шунингдек ёритиш чироқлари ўрнатиш;

қурилиш таваккалчиликларини суғурта қилиш;

мазкур шартнома бўйича объектни фойдаланишга қабул қилиб олиш тўғрисидаги далолатнома имзоланган кундан бошлаб бир ой муддатда қурилиш майдонини ўзига тегишли қурилиш машиналари ва асбоб-ускуналари, транспорт воситалари, анжомлар, приборлар, инвентарлар, қурилиш материаллари, буюмлар, конструкциялар ҳамда вақтинчалик бинолардан бўшатиш;

қурилиш майдони қўрикланишини таъминлаш;

мазкур шартномада назарда тутилган барча мажбуриятларни тўлиқ ҳажмда бажариш мажбуриягини ўз зиммасига олади.

8. Пудратчи мазкур шартнома бўйича барча ишиларнинг ўз кучлари билан ва субпудратчилар томонидан зарур тарзда бажарилиши ҳамда объектнинг фойдаланишга тайёр ҳолда топширилиши учун Буюртмачи олдида тўлиқ мулкий жавоб беради.

#### **V. БЮОРТМАЧИННИГ МАЖБУРИЯТЛАРИ**

9. Мазкур шартномани бажариш учун Буюртмачи:

мазкур шартнома имзоланган кундан бошлаб 10 кун муддатда мазкур шартномага 1- иловага мувофиқ ишиларни бажариш учун яроқли бўлган қурилиш майдонини объект қурилиши ва қурилиш тугаллангунгача бўлган даврда далолатнома бўйича Пудратчига бериш;

Пудратчининг барча мурожаатларини ўн кун муддатда қўриб чиқиш ва қарор қабул қилиш;

молиялаштириш жадвалига биноан Пудратчига 1-иловага мувофиқ аванс бериш ва жорий молиялаштиришни амалга ошириш;

мазкур шартнома имзоланган кундан бошлаб 2 ой давомида Пудратчига ишиларни қабул қилиш учун зарур бўлган ижро хужжатлари рўйхатини тақдим этиш;

мазкур шартномада назарда тутилган мажбуриятларни тўлиқ ҳажмда бажариш мажбуриягини олади;

#### **VI. ИШЛАРНИ БАЖАРИШ МУДДАТЛАРИ**

10. Шартнома:

миллий валюта “сўмда” ўзаро ҳисоб-китоб қилинганда - томонлар уни имзолаган пайтдан бошлаб;

11. Пудратчи мазкур шартномага илова қилинадиган молиялаштириш жадвалига мувофиқ биринчи аванс тўлови тушган кундан бошлаб ишларни бажаришга киришади.

12. Танлов савдолари натижаси бўйича аниқланган қурилишнинг давом этиш вақти ишлар бошланган кундан эътиборан кунни ташкил этади.

13. Мазкур шартнома бўйича ишларни бажариш жадвалига мувофиқ амалга оширилади.

## **VII. ТЎЛОВЛАР ВА ҲИСОБ-КИТОБЛАР**

14. Буюртмачи Пудратчига шартнома бўйича ишлар умумий жорий қийматининг 30 фоизи миқдорида аванс ўтказади, бу **18 591 300.0 (Ўн саккиз миллион беш юз тўқсон бир минг уч юз)** сўмни ташкил этади.

15. Буюртмачи томонидан Пудратчига аванс бериш ва жорий молиялаштириш учун молиялаштириш ва ишларни бажариш жадваллари асос ҳисобланади (1-илова).

16. Барча ишларни Пудратчи бажаргандан сўнг, Буюртмачи ишларни қабул қилиш далолатномаси тузади. Далолатнома имзолангандан сўнг, 5 банк иш куни ичida Буюртмачи колган 70 фоиз тўловни амалга оширади.

## **VIII. ИШЛАРНИ БАЖАРИШ**

17. Буюртмачи қурилиш майдонида ўз вакилини - техник аудиторни тайинлайди, у Буюртмачининг номидан бажарилаётган ишлар сифати устидан техник назоратни амалга оширади, шунингдек Пудратчи томонидан фойдаланиладиган материаллар ва асбоб-ускуналарнинг шартнома шартларига ва иш хужжатларига мувофиқлигини текширади.

18. Техник аудитор ишлар бажарилишининг ва шартноманинг бутун даври мобайнida ишларнинг барча турлари билан тўсиқсиз танишиш хуқуқига эгадир.

19. Пудратчи техник аудиторни ишлаш учун жой билан таъминлайди. Техник аудитор Пудратчи томонидан ўтказиладиган қурилиш майдонида ишларни амалга ошириш чоғида пайдо бўлувчи масалаларни ҳал қилиш бўйича йигилишларда мунтазам равишда катнашади.

20. Пудратчи ишларни бажариш лойиҳасига ва мазкур шартноманинг VI бўлимида кўрсатилган муддатлар билан мувофиқлаштирилган ўз режаси ва жадвалига биноан объектда ишларни бажарishни мустакил равишда ташкил этади.

21. Пудратчи объектда ишларни олиб бориш тартибини давлат архитектура-қурилиш назорати органлари билан келишади ва унга риоя этилиши учун қонун хужжатларида белгиланган тартибда жавоб беради.

22. Қурилиш майдонида умумий тартиби таъминлаш Пудратчининг вазифаси ҳисобланади.

## **IX. ИШЛАРНИ ҚЎРИҚЛАШ**

23. Пудратчи ишлар бошланишидан қурилиш тугаллангунгача ва қурилиши тугалланган объект Буюртмачи томонидан қабул қилиб олингунга қадар четлари тўсилган қурилиш майдони худудида материаллар, асбоб-ускуналар, қурилиш техникаси ва бошқа мол-мулк зарур даражада қўриклинишини таъминлайди.

24. Тикланган бинолар ва иморатлар, шунингдек материаллар, асбоб-ускуналар ва бошқа мол-мулк объект қабул қилиб олинганидан кейин сақланиши учун Буюртмачи жавоб беради.

## **X. ЕНГИБ БЎЛМАЙДИГАН КУЧ (ФОРС-МАЖОР) ҲОЛАТЛАРИ**

25. Агар ушбу шартнома бўйича мажбуриятлар қисман ёки тўлиқ бажарилмаслиги табиат ҳодисалари ва бошқа енгib бўлмайдиган куч ҳолатлари натижасида келиб чиқса ва агар бу ҳолатлар мазкур шартноманинг бажарилишига бевосита таъсир этса, томонлар бундай қисман ёки тўлиқ бажармаслик учун жавобгарликдан озод этиладилар.

Мазкур шартнома бўйича мажбуриятларни бажариш муддати енгib бўлмайдиган куч ҳолатлари амал қилган, шунингдек ушбу ҳолатлар юзага келтирган вақтга мутаносиб равишда узайтирилади.

26. Агар енгиб бўлмайдиган куч ҳолатлари ёки уларнинг оқибатлари бир ойдан кўп вақтга чўзилса, у ҳолда Пудратчи ва Буюртмачи ишларни давом эттириш ёки уларни консервация қилиш учун қандай чоралар кўрилишини мухокама қиладилар.

27. Агар томонлар икки ой ичидаги келиша олмасалар, у ҳолда томонларнинг ҳар бирин шартнома бекор қилинишини талаб қилишга ҳақлидир.

## **XI. ҚУРИЛИШИ ТУГАЛЛАНГАН ОБЪЕКТНИ ҚАБУЛ ҚИЛИБ ОЛИШ**

28. Курилиши тугалланган объектни қабул қилиб олиш шартномани имзолаш санасида амалда бўлган белгиланган тартибга мувофиқ мазкур шартномада назарда тутилган барча мажбуриятлар томонлар тарафидан бажарилгандан кейин, шунингдек курилиши тугалланган объектларни фойдаланишга қабул қилиб олишнинг белгиланган қоидаларига биноан амалга оширилади.

29. Объектлар уларнинг фойдаланишга тайёрлиги тўғрисида Пудратчининг ёзма билдиришномаси Буюртмачи томонидан олинган кундан бошлаб 20 кун мобайнида қабул қилиб олинади.

30. Пудратчи курилиши тугалланган объектни қабул қилиб олиш бошланишидан 5 кун олдин мазкур шартноманинг V бўлимига мувофиқ Буюртмачига Буюртмачи томонидан белгиланган таркибда икки нусхада ижро хужжатларини беради. Пудратчи Буюртмачига ушбу хужжатлар тўплами амалда бажарилган ишларга тўлик мос келишини ёзма равишда тасдиқлаши керак.

31. Қабул қилиб олинган пайтдан бошлаб объект Буюртмачининг мулкига айланади.

## **XII. КАФОЛАТЛАР**

32. Пудратчи:

барча ишлар тўлиқ ҳажмда ва мазкур шартнома шартларида белгиланган муддатларда бажарилишини;

лойиха хужжатларига ҳамда курилиш меъёrlари, қоидалари ва техник шартларига мувофиқ барча ишларни бажариш сифатини;

ўзи томонидан курилиш учун кўлланиладиган курилиш материаллари, асбоб-ускуналар ва бутловчи буюмлар, конструкция ва тизимлар сифатини, уларнинг лойиха хужжатларидан кўрсатилган сертификацияларга, техник регламентлар ёки стандартларга мувофиқлигини;

ишларни қабул қилиш ва объектдан фойдаланишнинг кафолатли даврида аниқланган камчиликлар ва нуқсонларни ўз вақтида бартараф қилишини;

объектдан фойдаланилганда муҳандислик тизимлари ва ускуналарнинг фойдаланиш қоидаларига мувофиқлигини кафолатлади.

## **XIII. ШАРТНОМАНИ БЕКОР ҚИЛИШ**

33. Буюртмачи:

шартнома кучга киргандан кейин қурилишнинг бошланиши Буюртмачига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра Пудратчи томонидан бир ойдан кўп вақтга кечикирилганда;

ишларни тугатишнинг мазкур шартномада белгиланган муддати Пудратчининг айби билан бир ойдан ортиқ муддатга кўпайган ҳолда, Пудратчи томонидан ишларни бажариш жадвалига риоя этилмаганда;

Пудратчи томонидан шартнома шартлари курилиш меъёrlари ва қоидаларида назарда тутилган ишларнинг сифати пасайишига олиб келадиган даражада бузилганда;

қонун хужжатларига мувофиқ бошқа асослар бўйича шартноманинг бекор қилинишини талаб қилиш хуқуқига эга.

34. Пудратчи:

ишларнинг бажарилиши Пудратчига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра Буюртмачи томонидан бир ойдан ортиқ муддатга тўхтатиб қўйилганда;

Буюртмачи томонидан молиялаштириш шартлари бажарилмаганда;

қонун хужжатларига мувофиқ бошқа асослар бўйича шартноманинг бекор қилинишини талаб қилиш хуқуқига эга.

35. Шартнома бекор қилинганда Буюртмачи ва Пудратчининг қўшма қарорига кўра тутгалланмаган қурилиш бир ой муддатда Буюртмачига берилади, Буюртмачи бажарилган ишлар қийматини Пудратчига тўлайди.

36. Мазкур шартномани бекор қилишга қарор қилган томон мазкур бўлим қоидасига мувофиқ иккинчи томонга ёзма билдиришнома юборади.

37. Шартнома бекор қилинган тақдирда айбдор томон иккинчи томонга етказилган зарарни, шу жумладан бой берилган фойдани тўлайди.

38. Шартноманинг бир томонлама бекор қилинишига йўл қўйилмайди, қонун ҳужжатларида ёки мазкур шартномада назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

#### **XIV. ТОМОНЛАРНИНГ МУЛКИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ**

39. Томонлардан бири шартнома мажбуриятларини бажармаган ёки зарур даражада бажармаган тақдирда айбдор томон:

иккинчи томонга етказилган зарарларни қоплайди;

40. Мазкур шартномага тегишли иловаларда қўрсатилган ўз мажбуриятларига риоя килмаганлиги, ўз вақтида молиялаштирганлиги ва шартномада белгиланган бошқа мажбуриятларни бузганлиги учун Буюртмачи Пудратчига кечиктирилган ҳар бир кун учун мажбуриятларнинг бажарилмаган қисмининг 0.4 фоизи микдорида пеня тўлайди, бунда пенянинг умумий суммаси бажарилмаган ишлар ёки қўрсатилмаган хизматлар қийматининг 50 фоизидан ошмаслиги лозим.

Пеня тўланиши Буюртмачини шартнома шартлари бузилиши туфайли етказилган зарарни қоплашдан озод қилмайди.

#### **XV. НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШ ТАРТИБИ**

41. Шартномани бажаришда ва бекор қилинганда қўрсатилган зарарларни қоплашда пайдо бўладиган низоли масалаларни томонлар ҳал этолмаса улар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда иқтисодий суд томонидан кўриб чиқилади.

#### **XVI. АЛОҲИДА ШАРТЛАР**

42. Мазкур шартнома имзолангандан кейин, мазкур шартномага тегишли бўлган томонлар ўртасидаги барча олдинги ёзма ва оғзаки битимлар, ёзишмалар, томонларнинг ўзаро келишувлари ўз кучини йўқотади.

43. Агар Пудратчи шартнома бўйича ишлар якунлангандан кейин қурилиш майдонида ўзига тегишли мол-мулкни қолдирса, у ҳолда Буюртмачи Пудратчи қурилиш майдонини озод қилиш санасигача бажарилган ишлар учун унга ҳақ тўлашни кечиктиришга ҳақлидир.

44. Мазкур шартномада назарда тутилмаган бошқа барча ҳоллар учун амалдаги қонун ҳужжатлари нормалари қўлланилади.

45. Мазкур шартнома бир хил юридик кучга эга бўлган икки нусхада тузилди.

#### **XVII. КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ ШАРТ**

46. Томонлар:

-Томонлар, уларнинг аффиланган (ўзаро бўлмаган) шахслари ва ходимлари, ушбу Шартнома бўйича ўз мажбуриятларни бажаришлари давомида коррупцияга карши қурашиб соҳасидаги Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари талабларининг бузилишига олиб келадиган ва/ёки коррупция характеристига эга бўлган, шу жумладан (аммо, бу билан чекламай) пора бериш ёки беришни ваъда қилиш, таъмагирлик, пора олишга бевосита ёки билвосита рози бўлиш хатти-харакатлари/харакатсизлиларини содир этмайдilar.

-Томонлар, уларнинг аффиланган (ўзаро бўлмаган) шахслари ва ходимлари бошқа Томоннинг ходимлари ёки ваколатланган вакилларини қандайдир тарзда рағбатлантиришдан, шу жумладан пул суммалари, совғаларни тақдим этиш, уларнинг манзилига хизматларни беғараз қўрсатиш ёки бу ходим ёки ваколатланган вакил томонидан уни рағбарлантирувчи Томон фойдасига қандайдир хатти-харакатларни/харакатсизликлар

бажарилишини таъминлашга қаратилган ишларни бажаришдан воз кечадилар деб маълум қиласидар.

Томонда ушбу Шартноманинг 46. бандаги талабларни бузиш содир этганлиги ёки содир этилиши мумкинлиги тўғрисидаги шубҳалар юзага келган ҳолда, тегишли томон бу ҳакда иккинчи Томонни хабардор қилиш, коррупция билан курашиш соҳасидаги Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатларнинг нормалари бузилганлиги фактининг рад этиб бўлмайдиган далиллари мавжуд бўлган ҳолда эса-амалдаги қонун хужжатларда белгиланган тартибда ваколатланган органларни ҳам хабардор қилиш мажбуриятини ўз зиммасига олади.

### XVIII. ТОМОНЛАРНИНГ БАНК РЕКВИЗИТЛАРИ ВА ЮРИДИК МАНЗИЛЛАРИ:

Пудратчи:

Ташкилот номи: «OAZIZ ISHTIXON»  
хусусий корхонаси  
Манзил: Иштихон ш Зарафшон кўч 7-үй  
Банк АТ Савдогар Банк Иштихон филиали  
x/p: 20208000705040601001  
МФО: 00311  
ИНН: 306189622  
Тел: 93 330 51 61


Директор:



А.Толлиев

Буюртмачи:

Ташкилот номи: Иштихон туман  
Ободонлаштириш бошқармаси  
Манзил: Иштихон тумани F. Фулом МФЙ  
Иштихон кучаси 124 А-үй  
x/p: 100022860182127065200110018  
ИНН: 206932760  
Банк: Марказий банк Тошкент шаҳар бош  
бошқармаси XKKM  
Газначилик бўлинмаси номи: Иштихон  
туман Газначилик бўлинмаси  
ЯХК: 23402000300100001010  
МФО: 00011  
ИНН: 201122919



А.Х.Ибрагимов

## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNI QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO`G`RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi

### **Shartnoma**

2. Loyihaning nomi

### **Pudrat shartnomasi**

Ishtixon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va “**OAZIZ ISHTIXON**”  
**ХК** o`rtasida tuzilgan pudrat shartnomasi (jami shartnoma summasi **61 971 000**  
so`m). Ushbu shartnoma O`zR Fuqarolik kodeksi, O`zR “Davlat xaridlari  
to`g`risida”gi 2021-yil 22-apreldagi 684-son Qonuni va O`zR Prezidentining 2018-  
yil 27-sentyabrdagi 3953-son Qarori talablariga asosan qabul qilingan.

- 3.Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot.

**Ishtixon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi 27.06.2022 й.**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul  
qilish maqsadga muvofiq.

**2022-yil 27-iyun**

**Markaz boshlig'i**



**Sh.Yuldashev**

Солиқ солиши объектлари ҳамда солиқ  
солиши билан боғлик объектлар тұғрисидагы  
маълумотлар базасини шакллантириш ва  
юритиш тартиби тұғрисидагы  
низомга б-илова

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ СОЛИҚ ҚҮМИТАСИ  
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Солиқ тұловчининг Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қүмитасида рўйхатта  
олинганлиги ва унга идентификация раками берилганини тұғрисида  
**ГУВОХНОМА**

УДОСТОВЕРЕНИЕ  
о регистрации в Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан  
и присвоении идентификационного номера налогоплательщику

СОЛИҚ ТҰЛОВЧИ - ЮРИДИК ШАХС  
НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИК - ЮРИДИЧЕСКОЕ ЛИЦО

Тұлық номи: "OAZIZ ISHTIXON" xususiy korxonasi  
Полное наименование:

Кисқача номи: ЧП "OAZIZ ISHTIXON"  
Краткое наименование:

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қүмитасида рўйхатта олинди ва унга қуидаги  
солиқ тұловчи идентификация раками (СТИР) берилди:

Зарегистрирован в Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан  
и ему присвоен идентификационный номер налогоплательщика (ИНН):

306189622

СТИР берилган сана:  
Дата присвоения ИНН:

27.02.2019

Рўйхатга олинган ДСИ: Иштихон тумани  
Зарегистрирован в ГНИ:

Ушбу Гувохнома Давлат солиқ қүмитасининг интернетдаги расмий сайты  
оркали шакллантирилган ва чоп этилган

Данное Удостоверение сформировано и распечатано через официальный сайт  
Государственного налогового комитета

Гувохнома чоп этилган сана: 28.02.2022 19:27:24  
Дата распечатки удостоверения:



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT SOLIQ QO'MITASI

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I SOLIQ TO'LOVCHISI SIFATIDA RO'YXATDAN  
O'TGANLIGI TO'G'RISIDA  
GUVOHNOMA

С В И Д Е Т Е Л Ъ С Т В О  
О РЕГИСТРАЦИИ В КАЧЕСТВЕ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКА НАЛОГА НА  
ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ

QQS RO'YXAT RAQAMI

РЕГИСТРАЦИОННЫЙ НОМЕР НДС

318120126951

Mazkur guvohnoma QQS soliq to'lovchisi sifatida hisobga qo'yilganligi va QQS shaxsiy ro'yxatga olish raqami berilganligini tasdiqlaydi

Настоящее Свидетельство подтверждает постановку на регистрационный учет в качестве налогоплательщика НДС и присвоения индивидуального регистрационного номера НДС

Soliq to'lovchining nomi

Наименование налогоплательщика

ЧП "OAZIZ ISHTIXON"

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami

Идентификационный номер налогоплательщика

306189622

Shaxs QQS soliq to'lovchisi bo'lgan sana

Дата с которой лицо становится плательщиком  
НДС

01.10.2020

Ro'yxatdan o'tish sanasi

Дата регистрации

12.10.2020



Ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'rilagini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling.  
Отсканируйте QR-код при помощи мобильного устройства для проверки подлинности информации.



## XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 7 - iyul

VI-77-152-7-95-K/22

Ishtixon tuman hokimligi

### **Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining ayrim qarorlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 77-sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2022-yil 13-maydag'i VI-72-113-7-95-K/2023-sonli qarorining 2-bandida "Obod qishloq" dasturiga kirgan "Xazarbobo" mahalla fuqarolar yig'ini "Jarosti" qishlog'i va "Beshbola" mahalla fuqarolar yig'ini "Itbo'riboy" qishloqlari ko'chalariga tungi yoritish chiroqlari o'rnatishga metall quvur (truba) olish tuman mahalliy budgetining 2022-yil I chorak daromadlar rejasining oshgan qismi hisobidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilgan 200,0 (ikki yuz) million so'm pul mablag'lari tungi yoritish chiroqlari o'rnatish ishlarini bajarish uchun ajratilsin.
2. Tuman hokimligi moliya bo'limi (S.Ibragimov)ga budjetga tegishli o'zgartirish kiritish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (A.Turdiyev)ga belgilangan tartibda to'lovlarни amalga oshirish, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Ibragimov) va tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Qo'ziyev) ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.
3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Ishtixon tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Z.Egamov), tuman hokimining birinchi o'rindbosari (Sh.Ibragimov) zimmalariga yuklansin.

Sessiya raisi



K.E.Yavkochdiyev

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**2022 — 2026-YILLARDA “OBOD QISHLOQ” VA “OBOD MAHALLA” DASTURLARINI  
AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

So‘nggi uch yilda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 1 500 dan ortiq qishloq va mahallalardagi yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy soha obyektlarida qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, xizmat ko‘rsatish shoxobchalar tashkil etildi, shuningdek, ularda istiqomat qilayotgan aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, respublikada o‘tkazilgan xatlov natijasida ijtimoiy-iqtisodiy muammolari ko‘p bo‘lgan 1 071 ta qishloq va mahallalar mavjudligi aniqlandi.

Bundan tashqari, qishloq va mahallalarning 179 tasida paxsadan va xom g‘ishtdan qurilgan umumta’lim maktablari (maktab filiallari) faoliyat ko‘rsatmoqda, 5 568 tasida 29 ming km tuproq yo‘llar qattiq qoplamaga (qum-shag‘al, asfalt) o‘tkazilmagan, 1 540 tasi markazlashgan ichimlik suv bilan ta’mirlangan, shuningdek, 49 tasida jamoat transporti qatnovi hamda 781 tasida chiqindi yig‘ish xizmatlari yo‘lga qo‘yilmagan.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirishni izchil davom ettirish orqali aholining turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

1. Tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlari tomonidan Xalq qabulxonalarini va mahalliy hokimliklarga tushgan murojaatlar soni, olis va tabiiy iqlim sharoiti og‘ir hududda joylashganligi, aholi va tadbirkorlarning o‘zлari istiqomat qilayotgan hududni birgalikda obodonlashtirish haqidagi tashabbuslari mavjudligini inobatga olgan holda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari (keyingi o‘rnarda — Dasturlar) doirasida 2022-yil uchun:

qurilish, ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladigan jami 413 ta qishloq va mahalla tanlab olinganligi;

tanlab olingan qishloq va mahallalardagi yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlarining manzilli dasturlari tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida qurilish, ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladigan qishloq va mahallalar soni bo‘yicha maqsadli parametrlar 1-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 1a — 1n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida qurilish, ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bo‘yicha maqsadli parametrlar 2-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun moliyalashtirish manbalari 2a — 2n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarining maqsadli parametrlari 3-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 3a — 3n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida mintaqaviy yo‘llar (ichki ko‘chalar) va ichimlik suv ta’minoti tizimlarini yaxshilash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning maqsadli parametrlari 4-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 4a — 4n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida elektr ta’minoti tizimini yaxshilash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning maqsadli parametrlari 5-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 5a — 5n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida gaz ta’minoti tizimini yaxshilash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning maqsadli parametrlari 6-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 6a — 6n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida uy-joy fondini yaxshilash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning maqsadli parametrlari 7-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 7a — 7n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari komplekslari, bozor infratuzilmasi obyektlarini qurish hamda ta’mirlash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning maqsadli parametrlari 8-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 8a — 8n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida aloqa, axborotlashtirish va aholiga transport xizmati ko‘rsatish tizimini yaxshilash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning maqsadli parametrlari 9-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 9a — 9n-ilovalarga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida aholi punktlarini obodonlashtirish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning maqsadli parametrlari 10-ilovaga, shuningdek, 2022-yil uchun ularning manzilli ro‘yxatlari 10a — 10n-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripovga, zarur hollarda, ushbu band bilan tasdiqlanayotgan maqsadli parametrlar va manzilli ro‘yxatlarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining takliflari asosida o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish huquqi berilsin.

3. Respublikadagi mavjud qishloq va mahallalarda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida aholi uchun dolzarb bo‘lgan muammolarni o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan xatlov jarayonida aniqlangan ijtimoiy-iqtisodiy muammolari ko‘p bo‘lgan 1 071 ta qishloq va mahallalarning Dasturlarga birinchi navbatda kiritilishi talab etiladigan 447 tasidan 263 tasi 2022-yil uchun manzilli ro‘yxatlarga kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi bilan birgalikda mazkur qarorning 2-bandiga muvofiq Dasturlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish yuzasidan takliflarni va kelgusi yillar uchun manzilli ro‘yxatlarni shakllantirishda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan tasdiqlanadigan hududiy dasturlarni ishlab chiqishda ularga ustuvor ravishda ushbu bandda nazarda tutilgan 184 ta qishloq va mahallalarni kiritish choralarini ko‘rsin.

#### 4. Belgilab qo‘yilsinki:

##### a) Dasturlar doirasida:

ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimlari hamda yo‘l-transport infratuzilmasi obyektlari respublika budgeti mablag‘lari hisobidan tegishlichcha Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasi orqali;

ijtimoiy soha obyektlarini va boshqa obyektlarni qurish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budgeti hamda viloyatlar mahalliy budgetlarining qo‘srimcha manbalari hisobidan tegishlichcha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” jamg‘armalari orqali;

elektr energiyasi, tabiiy gaz, aloqa va axborotlashtirish tarmoqlarini qurish-ta’mirlash ishlari tegishlichcha “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgazta’minot” AJ, “O‘zbektelekom” AKning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi;

b). obyektlarning loyiha-smeta hujjatlariga asosan ajratilgan mablag‘lar yetishmagan taqdirda, ushbu obyektlarni qurish, ta’mirlash va obodonlashtirish bilan bog‘liq qo‘srimcha

xarajatlar tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgeti va viloyatlar mahalliy budgetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanadi;

v) yo'llarni ta'mirlash uchun qoldirilgan zaxira mablag'lari xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan belgilab berilgan qishloq va mahallalardagi yo'llarni ta'mirlashga "Obod qishloq" dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasining (keyingi o'rnlarda — Respublika komissiyasi) qaroriga asosan yo'naltiriladi.

5. Moliya vazirligi respublika budgetidan Dasturlar doirasida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun 2,0 trillion so'm va ichimlik suv ta'minotini yaxshilash uchun 1 trillion so'm mablag' ajratsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgeti hamda mahalliy budgetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan ijtimoiy soha va boshqa obyektlarni qurish (ta'mirlash) va obodonlashtirishga 1,4 trillion so'm mablag'ni mazkur qarorning 2, 2a — 2n-ilovalarida belgilangan miqdorlarda ajratilishini ta'minlasin.

6. Dasturlar doirasida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bo'yicha buyurtmachi etib:

ichimlik suv ta'minoti obyektlari (ijtimoiy sheriklik loyihalari bundan mustasno), ijtimoiy soha obyektlari va qurilish-ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari markazlashtirilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan boshqa obyektlar bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK;

ichki avtomobil yo'llari bo'yicha — Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi "Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK;

elektr energiyasi, tabiiy gaz va aloqa tarmoqlari bo'yicha — tegishlicha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ hamda "O'zbektelekom" AK hududiy filiallari;

ichimlik suv ta'minoti sohasidagi ijtimoiy sheriklik loyihalari bo'yicha — Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi belgilansin.

7. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan obyektlarni foydalanishga qabul qilish hamda ekspluatatsiya qilishni tashkil etish sxemasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2023-yildan boshlab:

qishloq va mahallalardagi mavjud ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarining haqiqiy holati tasdiqlangan mezonlar asosida baholanib boriladi;

baholash natijalariga ko'ra eng past ko'rsatkich qayd etgan va o'tgan davr mobaynida Dasturlarga kiritilmagan qishloq va mahallalar Dasturlarga birinchi navbatda kiritiladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi va Qurilish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qishloq va mahallalardagi mavjud ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarining haqiqiy holatini baholash mezonlarini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Respublika komissiyasiga kirtsin.

9. Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda joriy yil 15-mayga qadar ishlab chiqilgan mezonlar asosida qishloq va mahallalarni baholashdan o'tkazsin va ularning reyestrini shakllantirsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari:

2022-yil 15-aprelga qadar qishloq va mahallalarda yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarining manzilli ro'yxatlariga muvofiq obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilishini ta'minlasin. Bunda, har bir obyekt identifikatsiya raqami berilgan holda, "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi va "Budget nazorati" elektron dasturiga kiritiladi;

Dasturlar doirasida amalga oshiriladigan ishlar hajmi va smeta qiymatlarining asossiz ravishda oshib ketmasligi ustidan doimiy nazorat o'rnatsin;

Dasturlarga kiritilgan qishloq va mahallalarning bosh reja sxemalari hamda bat afsil rejalashtirish loyihalari hududiy loyiha tashkilotlari tomonidan oldindan ishlab chiqilishini va ular bilan bog'liq tadbirdarning tegishli mahalliy budgetlar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlasin;

joylarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, infratuzilma obyektlarini qurish hamda ta'mirlash ishlarini moliyalashtirishga aholi va tashabbuskor tadbirkorlar mablag'lari, homiylik xayriyalari, tijorat banklari kreditlarini va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mablag'larni jalg qilish choralarini ko'rsin;

Dasturlar doirasida amalga oshiriladigan qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlariga, birinchi navbatda shu hududda yashayotgan hamda "Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" dan biriga kiritilgan yoki mehnat migratsiyasidan qaytgan ishsiz va band bo'lmagan aholini jalg qilish choralarini ko'rsin;

har oy yakuni bo'yicha Respublika komissiyasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Qurilish vazirligiga Dasturlar doirasida bajarilgan ishlar va moliyalashtirilgan mablag'lar to'g'risida axborot kiritib borsin.

#### 11. Qurilish vazirligi:

bir oy muddatda Dasturlarga kiritilgan qishloq va mahallalarning bosh reja sxemalari, bat afsil rejalashtirish loyihalarini hamda qishloq va mahallalar markazining zamonaviy qiyofasi loyihasini ishlab chiqsin;

Dasturlar doirasida obyektlarni qurish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarining belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishini va qurilish-montaj ishlari sifatlari bajarilishi ustidan tizimli davlat nazorati amalga oshirilishini ta'minlasin.

12. Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabiga (E.T. Yuldashev) Dasturlar doirasida:

tanlov (tender)lar o'z vaqtida va shaffof o'tkazilishini, qurilish-pudrat ishlarining sifatlari bajarilishi va loyiha hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish;

loyihalar buyurtmachilar tomonidan o'z vaqtida moliyalashtirilishi hamda belgilangan muddatlarda yakunlanishi, shuningdek, ajratiladigan mablag'lardan maqsadli hamda samarali foydalilanishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish;

ijrosi kechikayotgan va muammoli loyihalarni joyiga chiqqan holda o'rganish hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarini ko'rish;

har oy yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

13. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinosarlari A.J. Ramatov, J.A. Qo'chqorov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini har oyda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasisiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga har chorak yakuni bo'yicha axborot berib borilsin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 18-mart,  
PQ-172-son

2022 йил 18 маюн "Обод кешиной" ва "Ўбоқ мажаласа" Ахтотурлар конгресидаги қышлок, ва маддията ҳуаударларни чора-тайдиборларни саналга ошириладигини борасида эмасла таъсирлантириш бўйича

Т/р	ХУДУД Номи	Инсон иерархияси тармоқларини курниш ва таъминлаш		Тоғлик кўнағи бритни тизимини келишади		Сурʼони КУА/ИЖардни қўзига ва таъминлашни ниодада ишлаб олади		Чораподиқонлар турниш ва таъминлашни, яхон ниодада ишлаб олади ва урнадар узатиш		Кўнганамозлаштиришни		Ундижакни ниодада ишлаб олади		Гулорлар ташни этниш ниодада ишлаб олади		Хонякини ва харбне ниодадарни		Ташаббускор тадиборлар ва ўзум ниодадарни	
		Миндори (км)	Чийматин (юн. сўн)	Миндори (км)	Чийматин (юн. сўн)	Миндори (дона)	Чийматин (юн. сўн)	Миндори (дона)	Чийматин (юн. сўн)	Миндори (дона)	Чийматин (юн. сўн)	Миндори (дона)	Чийматин (юн. сўн)	Миндори (дона)	Чийматин (юн. сўн)	Миндори (дона)	Чийматин (юн. сўн)	Миндори (дона)	Чийматин (юн. сўн)
	Ишми	26,8	4.590	57,7	15.012	1.634	22.876	101	835	59.900	4.493	1.200	90	47.806	46.971	835			
1.	Самарқанд шаҳри	7,2	1.080	4,0	1.040	200	2.800			1.000	75	500	38	4.995	4.995				
	"Дунёник" МФИ	3,0	450	2,0	520	80	1.120			500	38	500	38	2.128	2.128				
	"Навбатон" МФИ	4,2	630	2,0	520	120	1.680			500	38			2.868	2.868				
2.	Кагангарон шаҳри	3,6	540	3,0	780	140	1.960			500	38			3.370	3.370				
	"Абдула Кайхор" МФИ	1,8	270	1,5	390	70	980			700	53			1.693	1.693				
	"Янубоб" МФИ	1,8	270	1,5	390	70	980			5	53	10.000	750	2.761	2.761	53			
3.	Бунядор тумани	2,0	300	2,5	650	72	1.008			1	20	5.000	375	1.309	1.209	20			
	"Боғбон" МФИ	1,0	150	1,0	260	36	504			4	33	5.000	375	1.452	1.419	33			
	"Нарбоб" МФИ	1,0	150	1,5	390	36	504			8	65	6.000	450	3.255	3.190	65			
4.	Жонбай тумани	2,0	300	4,0	1.040	100	1.400			4	33	3.000	225	1.628	1.595	33			
	"Холиқон" МФИ	1,0	150	2,0	520	50	700			4	33	3.000	225	1.628	1.595	33			
	"Қорамон" МФИ	1,0	150	2,0	520	50	700			4	33	3.000	225	1.628	1.595	65			
5.	Житикином тумани	3,0	780	72	1.008					8	65	1.000	75	1.928	1.863				
	"Башибола" МФИ	1,5	390	36	504					4	33	500	38	964	932	33			
	"Ҳазирбоб" МФИ	1,5	390	36	504					4	33	500	38	964	932	33			
6.	Каттакорон тумани	6,0	750	4,0	1.040	100	1.400			8	65	5.000	375	3.630	3.565	65			
	"Чиги ҳад" МФИ	3,0	375	2,0	520	50	700			4	33	2.500	188	1.815	1.783	33			
	"Енбосой" МФИ	3,0	375	2,0	520	50	700			4	33	2.500	188	1.615	1.783	33			
7.	Нармад тумани	2,0	960	3,0	780	140	1.960			8	65	2.000	150	3.915	3.850	65			
	"Ийон" МФИ	1,0	480	1,5	390	70	980			4	33	1.000	75	1.958	1.925	33			
	"Беклар" МФИ	1,0	480	1,5	390	70	980			4	33	1.000	75	1.958	1.925	33			
8.	Нурбода тумани	3,0	780	60	840					8	65	10.000	750	2.435	2.370	65			
	"Ағон" МФИ	1,5	390	30	420					4	33	5.000	375	1.218	1.185	33			
	"Оғза" МФИ	1,5	390	30	420					4	33	5.000	375	1.218	1.185	33			
9.	Ондарё тумани	3,0	780	66	924					8	65	1.000	75	1.844	1.779	65			
	"Платобод" МФИ	1,5	390	30	420					4	33	500	38	880	848	33			
	"Миёненоп" МФИ	1,5	390	36	504					4	33	500	38	964	932	33			
10.	Пайвенд тумани	4,0	660	2,2	572	100	1.400			8	65	5.000	375	3.072	3.007	65			
	"Бешкўргон" МФИ	2,0	345	1,0	260	50	700			4	33	2.500	188	1.525	1.493	33			
	"Хула Ислом" МФИ	2,0	315	1,2	312	50	700			4	33	2.500	188	1.547	1.515	33			
11.	Пегадарном тумани	5,0	1.300	140	1.960					8	65	900	68	3.393	3.328	65			
	"Туркмали" МФИ	2,5	650	70	980					4	33	450	34	1.696	1.664	33			
	"Гурӯли" МФИ	1,5	390	36	504					4	33	1.000	75	1.002	969	33			
12.	Плагати тумани	3,0	780	72	1.008					8	65	2.000	150	2.003	1.938	65			
	"Кўчхону" МФИ	1,5	390	36	504					4	33	1.000	75	1.002	969	33			
13.	Самарқанд тумани	5,0	1.300	100	1.400					4	33	2.400	180	2.880	2.880	65			
	"Қозонийон" МФИ	2,5	650	50	700					4	33	1.200	90	1.440	1.440	65			
	"Дайстин" МФИ	2,5	650	50	700					4	33	1.200	90	1.440	1.440	65			